

"Mendeleyev kids and juniors" bolajonlarni mo'jizaviy kimyo olamiga sayohatga taklif etadi

// 10.10.2024

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/mendeleyev-kids-and-juniors-bolajonlarni-mo-jizaviy-kimyo-ol>

D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo texnologiya universiteti Toshkent shahri filiali talabalari tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan "Mendeleyev kids and juniors" loyihasi 6 yoshdan 14 yoshgacha bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda haqiqiy laboratoriyada tajribalar o'tkaziladi.

Loyiha shu vaqtgacha 570 nafardan ortiq yoshlarning kimyo fani haqida tasavvurlarini boyitishga, tabiiy fanlarga qiziqishlarini orttirishga hissa qo'shmoqda.

Bolajonlar ota-onalari bilan Rossiya kimyo texnologiya universiteti Toshkent shahri filialiga tashrif buyurib, qiziqarli kimyoviy amaliyotlar, nazariy seminarlar, kvestlarda ishtirok etishlari mumkin.

Navbatdagi darslar 13- oktabr yakshanba kuni bo'lib o'tadi. Ro'yxatdan o'tish uchun @Mkids_admin ga murojaat qiling.

"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati